

YALPI HUDUDIY MAHSULOT





Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-iyunida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 14 158,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 6,8 % ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 112,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YalMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,4 % ga yetdi.




Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

| | | Mlrd. so'm | | O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da |
|---|---|-----------------|-----------------|---|
| | | 2020- yil | 2021- yil | |
| | I. YaHM | 11 781,1 | 14 158,2 | 106,8 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | |
|  | Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 11 473,8 | 13 763,1 | 106,9 |
|  | Mahsulotlarga sof soliqlar | 307,3 | 395,1 | 105,9 |
| | Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 11 473,8 | 13 763,1 | 106,9 |
|  | Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 4 038,2 | 4 789,9 | 103,9 |
| | Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 2 546,9 | 3 160,6 | 109,7 |
|  | sanoat | 1 649,1 | 2 097,4 | 111,8 |

| | | Mld. so‘m | | O‘shish sur‘atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da |
|--|--|-----------|-----------|--|
| | | 2020- yil | 2021- yil | |
|  | qurilish | 897,8 | 1 063,2 | 105,8 |
| | Xizmatlar | 4 888,7 | 5 812,6 | 107,8 |
|  | savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 851,9 | 1 031,3 | 108,4 |
|  | tashish va saqlash, axborot va aloqa | 592,7 | 755,8 | 114,5 |
|  | boshqa xizmat tarmoqlari | 3 444,1 | 4 025,5 | 106,5 |

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 4 915,3 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 4,7 % ga yuqoridir.






Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 34,8 % ni, sanoat tarmog'i 15,2 % ni, qurilish 7,7 % ni va xizmatlar sohasi 42,3 % ni tashkil qildi.




**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

| | | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|--------------|--------------|
| | I. YaHM, jami | 100,0 | 100,0 |
| | <i>shu jumladan:</i> | | |
|  | Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 97,4 | 97,2 |
|  | Mahsulotlarga sof soliqlar | 2,6 | 2,8 |
| | II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 100,0 | 100,0 |
|  | Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 35,2 | 34,8 |
| | Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 22,2 | 22,9 |
|  | sanoat | 14,4 | 15,2 |
|  | qurilish | 7,8 | 7,7 |
| | Xizmatlar | 42,6 | 42,3 |
|  | savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 7,4 | 7,5 |
|  | tashish va saqlash, axborot va aloqa | 5,2 | 5,5 |
|  | boshqa xizmat tarmoqlari | 30,2 | 29,3 |




**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

2020- yil





2021- yil



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,9 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 34,8 %), sanoatda – 111,8 % (15,2 %), qurilishda – 105,8 % (7,7 %), xizmatlar sohasida – 107,8 % ni (42,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 108,4 % (7,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 114,5 % (5,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 106,5 % dan (29,3 %) iborat bo'ldi.



Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YaHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,3 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 1,6 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,7 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 2,0 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 1,3 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,2 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,9 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 0,2 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.




**2021- yilning yanvar-iyun oylarida
YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)**



2021- yilning yanvar-iyunida YaHM deflyatori indeksi 2020- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 112,5 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 114,2 %, sanoat – 113,8 % va qurilishda – 111,9 % qayd etildi.



Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2021- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 71,6 %ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar-iyunida – 71,0 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi.